ΔO zonasi (7,86 %) esa O sektorining istiqbolli faollashtirish yo'nalishidir. Bu zonadagi indikatorlar (moliyaviy mustaqillik, KPI tizimi, xizmat sifatini modullashtirish) tashqi imkoniyatlarni aniq loyihalarga aylantirishga xizmat qiladi. O' sektori ($O + \Delta O = 19,61$ %) – bozorni kengaytirishga xizmat qiluvchi tashqi imkoniyatlar majmuasini bildiradi.

Tahdidlar sektori (T) – 15,55 % ulush bilan tashqi xavf omillarini ifodalaydi. U server infratuzilmasining zaifligi, ofis ergonomikasi, texnik xizmatga qaramlik va kadrlar salohiyatidagi cheklovlar orqali shakllanadi.

ΔT zonasi (10,44 %) – tahdidli holatlarning kuchayish ehtimolini bildiradi. Bu zonada joylashgan indikatorlar (motivatsiya yetishmasligi, tanqidiy fikrlash zaifligi, innovatsion g'oyalarni o'zlashtira olmaslik) – agar ular e'tibordan chetda qolsa – T sektorining strategik xavfini yanada kuchaytiradi. T' sektori ($T + \Delta T = 26,00$ %) – salbiy tashqi omillar kuchaygan holatdagi eng yuqori tahdid ko'rsatkichlarini anglatadi.

Zaifliklar sektori (W) – 7,60 % ulush bilan ichki tashkiliy muammolar, boshqaruvdagi uzilishlar, akkreditatsiya, mijoz fikriga e'tibor yetishmasligi kabi 10 dan ortiq indikatorlarni qamrab oladi.

ΔW zonasi (2,80 %) esa bu zaifliklarning yanada kuchayishi mumkin bo'lgan indikatorlarini o'z ichiga oladi. Bu indikatorlar (masalan, KPI asosida faoliyat yuritmaslik, kompaniya maqsadlari bilan uyg'unlikning pastligi) – S' va O' sektorlaridagi faoliyatga asossiz ustuvorlik berilganda – befarqlikdan kelib chiqib kuchayadi. W' sektori ($W + \Delta W = 10,40$ %) – ichki salbiy holatlarning maksimal ta'sir zonasi bo'lib, resurslar noto'g'ri taqsimlanganda xizmat sifati va ishonchlilikka xavf soladi.

Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozorini SWOT–SCPM (Strategic SWOT-Based Coordinate Positioning Model) asosida tahlil qilish natijalariga ko'ra¹⁸, bozor holati ikkita asosiy strategik vektor asosida harakat qilmoqda:

1. Ijobiy vektor – o'sish va raqobatbardoshlik vektori ($S' + O' = 63,60$ %):

Bu vektor kuchli ichki resurslar (S') va tashqi imkoniyatlar (O') kombinatsiyasi orqali bozorning rivojlanish salohiyatini aks ettiradi. Sektorlar tarkibida yuqori baholangan indikatorlar – xodimlar salohiyati, mijozlar bilan muloqot sifati, axborot xavfsizligi, texnologik ta'minlanganlik va xizmat ko'rsatish segmentatsiyasi – strategik ustunliklar konsentratsiyasining mavjudligini bildiradi. Bu konsentratsiya xalqaro sifat menejmenti standartlari (masalan, ISO 9001:2015, EFQM Excellence Model) nuqtai nazaridan barqarorlik va o'sish omillari bo'yicha mukammal moslashuvchanlikni ifodalaydi.

2. Salbiy vektor – xavf kuchayishi vektori ($T' + W' = 36,40$ %):

Bu vektor bozorning ichki tizimli zaifliklari (W') va tashqi strategik tahdidlar (T') orqali salbiy oqibatlar ehtimolini ifodalaydi. Xususan, past malakali ishchi kuchi, akkreditatsiya va KPI tizimlarining yetishmasligi, infrastrukturaviy nomutanosibliklar, tashqi texnik xizmatlarga yuqori darajadagi qaramlik kabi indikatorlar bu zonalarda to'plangan. Agar bu sektorlar transformatsiya qilinmasa, ular bozor barqarorligiga qarshi ishlovchi salbiy sinergetik ta'sirlarni kuchaytiradi.

Shu sababli, ΔW va ΔT zonalar (mos ravishda 2,80 % va 10,44 %) – mustaqil rivojlantiriladigan zonalar emas, balki S' va O' sektorlarining integratsiyalashgan rivojlanish strategiyasi doirasida inklyuziv tarzda e'tiborga olinishi zarur. Bu degani, ΔW va ΔT zonalaridagi indikatorlar (tanqidiy fikrlash, KPI yo'qligi, tashqi servisga qaramlik) befarqlik yoki noto'g'ri resurs taqsimoti natijasida salbiy spiralga kirib borishi va natijada umumiy rivojlanish yo'nalishini teskari vektorga burib yuborishi mumkin. Bu strategik inersiya holati bozorni regres tendensiyasiga olib kiradi.

Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozorining strategik markaz og'irligi kuchli jihatlar zonasi atrofida to'plangan bo'lishi, ya'ni doira markazi (2-rasmga qarang), resurslar konsentratsiyasi, tashabbuskorlik salohiyati va samarali boshqaruv aynan ichki faktorlar tomonidan boshqarilayotganini bildiradi. Bu holat xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan yondashuvga muvofiq, ya'ni Resource-Based View (RBV) nazariyasiga ko'ra, o'sishning asosiy manbai – bu noyob, qiyin takrorlanuvchi ichki resurslar (malaka, madaniyat, texnologik ko'nikmalar va resurslar) ekani bilan bevosita mos keladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda, ko'p ishtirokchili va raqobatga asoslangan muhitda strategik qarorlarni shakllantirish va ulardan optimal foyda olish jarayoni oddiy chiziqli rejalashtirish bilan emas, balki o'zaro ta'sirli, murakkab muvozanatli model asosida hal etiladi. Aynan shunday sharoitlar uchun iqtisodiyotda keng qo'llanilayotgan nazariyalardan biri – bu o'yinlar nazariyasi (Game Theory) bo'lib, u bir nechta ishtirokchilar ishtirok etadigan strategik qaror qabul qilish holatlarini matematik model orqali tavsiflaydi¹⁹.

O'yinlar nazariyasi ilk bor Jon fon Neyman va Oskar Morgenstern tomonidan 1944-yilda Game Theory and Economic Behavior asarida shakllantirilgan bo'lib, keyinchalik Jon Nesh tomonidan Nash muvozanati tushunchasi

18 Barney, J. B. 1991. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage, Journal of Management, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>

19 Nash, J. (1950). Equilibrium points in n-person games. Proceedings of the National Academy of Sciences, 36(1).



bilan boyitilgan. O'yinlar nazariyasi – bu har bir qaror qabul qiluvchining (o'yinchining) o'z strategiyasini boshqa ishtirokchilar strategiyasiga bog'liq holda shakllantirishini tahlil qiluvchi matematik vositadir²⁰.

O'yinlar nazariyasining iqtisodiy mantiqiy asosiga ko'ra, har bir subyekt (kompaniya, tashkilot yoki investor) o'zining ma'lum strategik maqsadlariga erishishga intiladi va bu jarayonda boshqalarning xatti-harakatlarini prognoz qilishga urinadi. Bu esa ko'p tomonlama interaktiv muhitda qaror qabul qilish jarayonini nolinch yig'indili o'yinlar, ko'p g'olibli o'yinlar, Nash muvozanatlari, stoxastik yoki deterministik o'yinlar, ko'p bosqichli strategik o'yinlar kabi modellar orqali tavsiflashni talab qiladi.

MAXB (moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori) tashkilotlar faoliyati – o'z mohiyatiga ko'ra – ko'p ishtirokchili raqobatli o'yin holatiga mos keladi. Chunki bu bozorda:

- cheklangan moliyaviy va insoniy resurslar mavjud;
- tashqi muhit (mijozlar talabi, qonunchilik, texnologik yangiliklar) doimiy o'zgaruvchan;
- ishtirokchilar qarorlari bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi.

Bu sharoitda har bir tashkilot o'zining optimal strategik yo'nalishini tanlashi kerak bo'ladi. Aynan shu sababli, MAXBni rivojlantirishda o'yinlar nazariyasiga asoslangan yondashuvlar, xususan, strategik tanlovlar daraxti, muvozanatli natijalar va alternativ strategiyalarni baholovchi mexanizmlar qo'llanishi zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, o'yinlar nazariyasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Strategik tanlovlar – har bir ishtirokchi o'zining resursi, maqsadi va raqobatchilar harakatiga ko'ra turli strategiyalarni tanlaydi.

2. Nash muvozanati – har bir ishtirokchi o'zining optimal strategiyasini tanlagan va boshqa ishtirokchilar uni o'zgartirmasa, o'z strategiyasini o'zgartirishga zarurat qolmaydi.

3. Kooperatsiya va kooperativ ustunliklar – ba'zi hollarda tashkilotlar resurslar yoki bozor ulushi bo'yicha hamkorlik orqali yuqori foyda olishadi.

4. Stoxastik prognozlash – ishonchsizlik sharoitida (tavakkal bilan) qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini modellashtirish.

5. Resurslar chegarasi doirasida optimal tanlov – bu iqtisodiy samaradorlik va foyda maksimalizatsiyasiga qaratilgan qarorlar tizimini shakllantiradi.

Shunday qilib, o'yinlar nazariyasi – moliyaviy outsorsing xizmatlari bozorida innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish, barqaror strategiyalarni tanlash va bozor muvozanatini ta'minlash uchun ilmiy-analitik asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu asosda ishlab chiqilgan TROP (Tavakkal–Raqobat–Optimal/Operativ–Potensial) modeli ham o'yinlar nazariyasining strategik qarorlar tanlash mexanizmlariga asoslanadi (3-rasm).

Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorida (MAXB) tashkilotlar tomonidan qabul qilinadigan strategik qarorlar ko'p faktorli va ko'p bosqichli muhitda shakllanadi. Bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi, resurslar chegaraliligi va raqobat muvozanatini saqlash zarurati zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, xususan, o'yinlar nazariyasi yondashuvlarini qo'llashni talab qiladi. Aynan shu asosda ishlab chiqilgan TROP mexanizmi tashkilotlarga barqarorlik, aniqlik va foydali pozitsiyalash imkonini beruvchi innovatsion strategik model ko'rinishini beradi.

Ushbu mexanizmning boshlang'ich bosqichlari – faoliyat turlarini belgilash, SWOT indikatorlarini aniqlash, iqtisodiy–matematik koordinatalarda modellashtirish – o'zaro tahliliy va hisoblash bosqichlari sifatida amal qiladi. Bu jarayonlar orqali tashkilotlar o'z strategik pozitsiyalarini aniqlab oladi. Bu holat o'yinlar nazariyasida o'yin oldi fazasi sifatida baholanadi, ya'ni barcha ishtirokchi tashkilotlar o'z ichki va tashqi imkoniyatlarini baholab, o'z pozitsiyalarini SWOT–SCPM koordinatalarida joylashtiradi.


TROP innovatsion mexanizmining asosiy strategik o'yin bosqichi esa to'rt xil yondashuvdan birini tanlashga asoslanadi. Ya'ni bu bosqichda tashkilotlar o'z ehtiyojlari va mavjud sharoitlarga qarab Tavakkal (T), Raqobat (R), Optimal–Operativ (O) yoki Potensial (P) yo'nalishlaridan birini tanlab, strategik qarorini aniqlaydi. Bu tanlov o'yinlar nazariyasidagi strategiya tanlash fazasiga to'g'ri keladi. Quyida ularning har biri izohlanadi (4-jadval):

1. Tavakkal usuli (T-variant) – bu ehtimollik asosida harakat qilishni nazarda tutadi. SWOT segmentlarida o'zgaruvchan ΔS , ΔW , ΔO , ΔT qiymatlar mavjud kuchli/zaif, imkoniyat/tahdid koordinatalari bilan birlashtirilib, $S' = S + \Delta S$ kabi integratsiyalashgan natijalar olinadi. Bu holat stoxastik o'yinlarga mos keladi, chunki tashkilotlar noaniqlik sharoitida ehtimollik asosida qaror qabul qilishadi.

2. Optimal–operativ usul (O-variant) – bu yondashuv faqat ichki kuchli tomonlar (ΔS) orqali harakat qilishni nazarda tutadi. Bunda faqat SWOT doirasining strategik ijobiy kvadrantiga e'tibor qaratiladi. Bu holat o'yinlar nazariyasida deterministik (aniq) o'yin hisoblanib, o'z resurslarini maksimal darajada samarali boshqaruvchi ishtirokchilarning strategiyasi sifatida qaraladi.

3. Potensial usul (P-variant) – bu tashqi imkoniyatlardan (ΔO) foydalangan holda sektorlar bo'yicha harakatni ifodalaydi. Bu holatda o'yinchilar (tashkilotlar) tashqi resurslar, investitsiya oqimlari, hukumat qo'llovi kabi imkoniyatlarni strategik ustunlikka aylantirishga intiladi. Bu esa o'yinlar nazariyasidagi kooperativ sinergik o'yinlar tamoyiliga mos keladi.

20 Von Neumann, J., & Morgenstern, O. (1944). Theory of Games and Economic Behavior. Princeton University Press.



3-rasm. MAXB ning model innovatsion mexanizmi²¹ (o'yinlar teoremasi asosida).

2.3.4-jadval. SWOT – SCPM_{TROP-MAXB} model mexanizmi asosida prognoz hisob kitoblari²²

Tavakkal		$\Delta S \rightarrow S \rightarrow S' = S + \Delta S$	$\Delta W \rightarrow W \rightarrow W' = W + \Delta W$	$\Delta O \rightarrow O \rightarrow O' = O + \Delta O$	$\Delta T \rightarrow T \rightarrow T' = T + \Delta T$					
TROP _{MAXB} ^{tab}	78.5 100	34.521	43.976 %	8.172	10.411 %	15.394	19.611 %	20.41	26.001 %	
	Raqobat strategiyasi ta'sir doirasi	$\Delta S \rightarrow \Delta S$	$\Delta S \rightarrow W$	$\Delta S \rightarrow O$	$\Delta S \rightarrow T$	$\Delta W \rightarrow S$	$\Delta W \rightarrow \Delta W$	$\Delta W \rightarrow O$	$\Delta W \rightarrow T$	$\Delta O \rightarrow S$
		3.126	1.19	1.84	2.434	0.529	0.061	0.259	0.342	1.482
		$\Delta O \rightarrow W$	$\Delta O \rightarrow \Delta O$	$\Delta O \rightarrow T$	$\Delta T \rightarrow S$	$\Delta T \rightarrow W$	$\Delta T \rightarrow O$	$\Delta T \rightarrow \Delta T$		
		0.469	0.485	0.959	1.972	0.624	0.964	0.858		
Raqobat (har bir indikatorlar ta'siri doirasida)	S' S	$S + (\Delta S \rightarrow W) + (\Delta S \rightarrow O) + (\Delta S \rightarrow T) - (\Delta W \rightarrow S) - (\Delta O \rightarrow S) - (\Delta T \rightarrow S) + (\Delta S \rightarrow \Delta S)$			23.464	29.891	ΔS	$\Delta S - (\Delta S \rightarrow \Delta S)$	12.541	15.973
	W' W	$W + (\Delta W \rightarrow S) + (\Delta W \rightarrow O) + (\Delta W \rightarrow T) - (\Delta S \rightarrow W) - (\Delta O \rightarrow W) - (\Delta T \rightarrow W) + (\Delta W \rightarrow \Delta W)$			4.871	6.212	ΔW	$\Delta W - (\Delta W \rightarrow \Delta W)$	2.142	2.729
	O' O	$O + (\Delta O \rightarrow S) + (\Delta O \rightarrow W) + (\Delta O \rightarrow T) - (\Delta S \rightarrow O) - (\Delta W \rightarrow O) - (\Delta T \rightarrow O) + (\Delta O \rightarrow \Delta O)$			9.564	12.171	ΔO	$\Delta O - (\Delta O \rightarrow \Delta O)$	5.686	7.243
	T' T	$T + (\Delta T \rightarrow S) + (\Delta T \rightarrow W) + (\Delta T \rightarrow O) - (\Delta S \rightarrow T) - (\Delta W \rightarrow T) - (\Delta O \rightarrow T) + (\Delta T \rightarrow \Delta T)$			12.881	16.412	ΔT	$\Delta T - (\Delta T \rightarrow \Delta T)$	7.351	9.364
	TROP _{MAXB} ^{tab}	78.5 100			50.78	64.69 %			27.72	35.31 %
Optimal-operativ (tashqi kuchli omillar asosida)	Optimal kuchlar ta'sir doirasi	$\Delta S \rightarrow S$	$\Delta S \rightarrow W$	$\Delta S \rightarrow O$	$\Delta S \rightarrow T$	$\Delta S \rightarrow \Delta S$	$\Delta S \rightarrow \Delta W$	$\Delta S \rightarrow \Delta O$	$\Delta S \rightarrow \Delta T$	
		3.762	1.19	1.84	2.434	3.126	0.44	1.231	1.638	
	S' S	$S + (\Delta S \rightarrow W) + (\Delta S \rightarrow O) + (\Delta S \rightarrow T) - (\Delta S \rightarrow S) + (\Delta S \rightarrow \Delta S) + (\Delta S \rightarrow \Delta W) + (\Delta S \rightarrow \Delta O) + (\Delta S \rightarrow \Delta T)$			26.995	34.39	ΔS	$\Delta S - (\Delta S \rightarrow \Delta S) + (\Delta S \rightarrow S)$	16.302	20.767
	W' W	$W - (\Delta S \rightarrow W)$			4.776	6.085	ΔW	$\Delta W - (\Delta S \rightarrow \Delta W)$	1.764	2.248
	O' O	$O - (\Delta S \rightarrow O)$			7.382	9.404	ΔO	$\Delta O - (\Delta S \rightarrow \Delta O)$	4.94	6.293
T' T	$T - (\Delta S \rightarrow T)$			9.766	12.44	ΔT	$\Delta T - (\Delta S \rightarrow \Delta T)$	6.571	8.371	
TROP _{MAXB} ^{opt}	78.5 100			48.92	62.32 %			29.58	37.68 %	
Potensial imkoniyatlar (tashqi imkoniyatlar asosida)	Potensial imkoniyatlar ta'sir doirasi	$\Delta O \rightarrow S$	$\Delta O \rightarrow W$	$\Delta O \rightarrow O$	$\Delta O \rightarrow T$	$\Delta O \rightarrow \Delta S$	$\Delta O \rightarrow \Delta W$	$\Delta O \rightarrow \Delta O$	$\Delta O \rightarrow \Delta T$	
		1.482	0.469	0.725	0.959	1.231	0.173	0.485	0.645	
	S' S	$S - (\Delta O \rightarrow S) + (\Delta O \rightarrow W) + (\Delta O \rightarrow O) + (\Delta O \rightarrow T) + (\Delta O \rightarrow \Delta S) + (\Delta O \rightarrow \Delta W) + (\Delta O \rightarrow \Delta O) + (\Delta O \rightarrow \Delta T)$			22.062	28.105	ΔS	$\Delta S - (\Delta O \rightarrow \Delta S)$	14.433	18.387
	W' W	$W - (\Delta O \rightarrow W)$			5.498	7.004	ΔW	$\Delta W - (\Delta O \rightarrow \Delta W)$	2.031	2.587
	O' O	$O + (\Delta O \rightarrow O)$			8.497	10.825	ΔO	$\Delta O - (\Delta O \rightarrow \Delta O) + (\Delta O \rightarrow S)$	7.168	9.132
T' T	$T - (\Delta O \rightarrow T)$			11.241	14.32	ΔT	$\Delta T - (\Delta O \rightarrow \Delta T)$	7.564	9.636	
TROP _{MAXB} ^{pot}	78.5 100			47.301	60.26 %			31.198	39.74 %	

Raqobat usuli (R-variant) – bu holatda har bir sektor ichidagi indikatorlar o'zaro taqqoslab tahlil qilinadi va ularning bozorga ta'siri baholanadi. Bu yondashuv o'yinlar nazariyasidagi Nash muvozanati (Nash Equilibrium) tamoyiliga tayanadi, ya'ni har bir ishtirokchi o'z strategiyasini boshqalar harakati o'zgarmas deb faraz qilgan holda optimallashtiradi. Bu eng realistik, ammo murakkab strategik o'yin shaklidir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, TROP mexanizm modelining hisoblash usul bosqichlari o'zaro alternativ blokni tashkil qiladi, ya'ni tashkilot faqat bitta strategik yondashuvni tanlaydi. Tanlangan strategiyaga ko'ra

21 Muallif ishlanmasi.

22 Symbolic Toolbox of Matlab dasturi asosida muallif hisob-kitoblari.



keyingi dislokatsiya va prognoz natijalariga o'tiladi. Bu jarayon «strategik qaror daraxti» (decision tree) sifatida modellashtiriladi, bunda har bir tarmoq yo'li turli natijaga olib keladi.

Moliyaviy outsourcing xizmatlari bozorida tashkilotlar tomonidan tanlanadigan strategik yo'nalishlar faqatgina sifat, quvvat yoki ichki imkoniyatlarga tayanib emas, balki investitsion resurslarning hajmi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi hamda vaqtga bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, TROP mexanizmidagi to'rt xil ta'sir hisoblash mezonlaridan birini tanlagach, tashkilot o'zining tanlagan strategiyasini real moliyaviy imkoniyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Bu jarayon iqtisodiy imkoniyatlar chegarasi tamoyiliga asoslanadi va har qanday strategik tanlov moliyaviy ta'minot bilan tasdiqlanishi shart.

Tanlangan strategiyaning samaradorligi esa keyingi bosqichda, ya'ni TROP mexanizmi natijalarini dislokatsiyalash jarayonida baholanadi. Ushbu bosqichda tashkilotlar tomonidan tanlangan yondashuvga asoslangan holda quyidagi muhim iqtisodiy-texnologik indikatorlar ko'rib chiqiladi:

- Bitim hajmi (transaksiyalar soni va yirikligi),
- Mablag'lar (moliyaviy yutuqlar va investitsiyalar hajmi),
- Xizmat sifati (standartlarga muvofiqlik va foydalanuvchi baholari),
- Unumdorlik (resurslardan foydalanish samaradorligi),
- Barqarorlik (uzoq muddatli davomiylik va tavakkal bardoshlilik),
- Imkoniyatlar (ichki va tashqi kengayish salohiyati),
- Diversifikatsiya (xizmat turlarining ko'lamliligi),
- Innovatsionlik (raqamli texnologiyalar va yangi yondashuvlar joriy etilishi).

Bu indikatorlar har bir strategik variant bo'yicha tekshiriladi va "HA" (muvaffaqiyatli bajarilgan) yoki "YO'Q" (amalga oshmagan yoki yetarli emas) kabi dikotomik (ikki variantli) natijalar shaklida baholanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy jihatdan diskret qarorlar to'plami asosida strategiyani filtrlash modelini tashkil etadi.

Olingan javoblar (HA yoki YO'Q) strategik prognoz natijalarini shakllantirishda asosiy kirish parametrlari sifatida xizmat qiladi. Natijalar soni va sifatining taqqoslanishi orqali tashkilot o'z tanlagan strategiyasining muvaffaqiyat darajasini aniqlaydi.

Agar ijobiy (HA) indikatorlar nisbati yuqori bo'lsa, tanlangan strategiya saqlanadi va qo'llab-quvvatlanadi. Aks holda, mantiqiy teskari bog'lanish faollashadi va quyidagi variantlardan biri tanlanadi:

- Hisoblangan TROP natijalari dislokatsiya bosqichiga qaytish (indikatorlar qayta baholanadi).
- TROP hisoblash strategiya tanlash bosqichini yangilash (muqobil strategik blok tanlanadi: T, R, O, P).
- Bozorga kirishning boshlang'ich nuqtasiga qaytish (tashkilot o'z faoliyat yo'nalishini butunlay qayta belgilaydi).

Bujarayon o'yinlar nazariyasida ko'p bosqichli iterativ o'yin sifatida izohlanadi. Har bir takroriy sikl tashkilotning bozor sharoitlariga moslashish, resurslarini qayta taqsimlash va faoliyat yo'nalishini mukammallashtirish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, strategik fikrli tanlov jarayoni orqali tashkilotlar o'zining HA yoki YO'Q natijalariga qarab qaror qabul qiladi, bu esa oqibatga asoslangan strategik qaror modeli shaklida qarorlar qabul qilish innovatsion mexanizmini hosil qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, TROP_{MAXB_RAQOBAT} innovatsion strategik ta'sir mexanizmi asosida hisoblab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari, SWOT–SCPM metodologiyasining SWOT–SCPM_{TROP} ko'rinishidagi kengaytirilgan modeli doirasida eng ustuvor va ishonchli strategik natijalar sifatida namoyon bo'ladi. SWOT bozor sektorlarining o'zaro ta'sir doirasida hisoblab chiqilgan moliyaviy outsourcing xizmatlar bozorining SWOT ulushlari strategik yondashuvlar va iqtisodiy asoslar bilan kutilayotgan prognoz natijalari aniqlanib, moliyaviy outsourcing xizmatlar bozorida institutsional ishtirokchilarning funksional barqarorlik darajasini aniqlashga imkon beradi (5-jadval).

SWOT–SCPM modelida aniqlangan 46.0% prognoz ulushi bozor markazining aynan S' (kuchli tomonlar) sektoriga yanada mukammalroq joylashishini ko'rsatadi. Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, bozor kuchli o'sish, rentabellik va diversifikatsiya salohiyatiga ega strategik hududda konsolidatsiyalashmoqda (2.3.4-rasm).

Mazkur doira markaz koordinatasining prognoz natijalari asosida (1.132; 1.682) nuqtadan (1.2948; 1.8623) nuqtaga siljishi, SWOT–SCPM modeli doirasida moliyaviy outsourcing xizmatlari bozorida resurslar va tashqi muhit omillari o'rtasidagi muvozanatning strategik jihatdan mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Ushbu fazoviy siljish strategik sektorlar kesimidagi kuchli indikatorlar innovatsion salohiyatning o'sib borayotganini iqtisodiy-matematik jihatdan ifodalaydi. Bu holat o'z navbatida Nash muvozanatiga yaqinlashuvni bildiradi – ya'ni, bozordagi asosiy ishtirokchilarning strategik qarorlar uyg'unligi natijasida xizmatlar taqsimoti va resurslardan foydalanish optimal holatga yaqinlashmoqda. Shuningdek, bunday harakatlar bozorni strategik barqarorlik orbitasiga olib chiqadi, chunki markazning yuqoriga va ijobiy yo'nalishda siljishi moliyaviy outsourcing xizmatlari bozorida o'sish trayektoriyasining mustahkam asosga ega bo'layotganini, investitsion ishonchlilik va innovatsion imkoniyatlarning kengayayotganini anglatadi.


5-jadval. modelining strategik sektorlar bo'yicha prognoz yondashuvlari²³.

Strategik sektorlar	Strategik yondashuv	Iqtisodiy asos	Kutilayotgan natija
S' (Kuchli tomonlar + o'sish)	Raqamli innovatsiyalar, xizmatlar diversifikatsiyasi, xalqaro raqamli eksport, yuqori malakali kadrlar tayyorlash	RBV nazariyasi asosida noyob resurslar ustunligi, yuqori rentabellik va reinvestitsiya salohiyati	Barqaror o'sish, bozor ulushining kengayishi, xalqaro integratsiya
W' (Zaif tomonlar + qarshi indikatorlar)	Ichki jarayonlarni qayta muvofiqlashtirish, malaka oshirish, xizmat sifati va xodimlar motivatsiyasini kuchaytirish	Ishlab chiqarish samaradorligi va operatsion xarajatlarni optimallashtirish orqali zaifliklarni kamaytirish	Ichki resurslar salohiyatining ortishi, xodimlar unumdorligining oshishi
O' (Imkoniyatlar + rivojlanish)	Bozor segmentatsiyasi va yangi xizmat turlarini kiritish, davlat dasturlari va raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan foydalanish	Institutsional islohotlar va texnologik o'sish imkoniyatlaridan foydalanish, innovatsion investitsiya oqimlari	Bozor ulushining kengayishi va yangi mijozlar oqimi, tarmoqda o'sish
T' (Tahdidlar + qarshi choralar)	Tashqi xavf-xatarlarni monitoring qilish, normativ-huquqiy barqarorlikni ta'minlash, sug'urta va risk menejmenti tizimlarini joriy qilish	Makroiqtisodiy xavf va tashqi shoklarga qarshi barqarorlikni ta'minlash, barqarorlik fondlarini shakllantirish	Xavf-xatarlarga qarshi barqarorlik, yo'qotishlarning oldini olish

$$\begin{aligned}
 TROP_{MAXB_{RAQOBAT}} S' = & \left[\begin{aligned}
 & = (S + (\Delta S \rightarrow W) + (\Delta S \rightarrow O) + (\Delta S \rightarrow T) - (\Delta W \rightarrow S) - \\
 & - (\Delta O \rightarrow S) - (\Delta T \rightarrow S) + (\Delta S \rightarrow S) + (\Delta S - (\Delta S \rightarrow \Delta S)) = \\
 & = (18.85 + 19.98 * 15.68 / 100 + 19.98 * 5.97 / 100 + \\
 & + 19.98 * 9.22 / 100 + 19.98 * 12.21 / 100 - 18.85 * 2.8 / 100 - \\
 & - 18.85 * 7.86 / 100 - 18.85 * 10.44 / 100) * 100 / 78.5 + \\
 & + (15.68 - 19.98 * 15.68 / 100) * 100 / 78.5 =
 \end{aligned} \right] = 46.0 \%
 \end{aligned}
 \tag{5}$$

Bu holat, o'z navbatida, xizmatlar eksporti, xalqaro raqamli integratsiya va mahalliy ehtiyojlarni yuqori sifat bilan qondirish imkoniyatini oshiradi. Mazkur mexanizm, bozorning har bir SWOT sektorining o'zaro ta'sir doirasidagi strategik yuzalarini iqtisodiy-matematik asosda baholash orqali, moliyaviy autsorsing xizmatlari bozorida institutsional ishtirokchilarning funksional barqarorlik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida moliyaviy autsorsing xizmatlari bozori – raqamlashtirish, funksional ixtisoslashuv va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi asosiy vektor sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda, xususan, Xorazm viloyati darajasida ushbu bozor segmenti hali to'laqonli rivojlanmagan bo'lib, u institutsional jihatdan tizimlashtirilmagan, raqamli infratuzilmasi esa yetarlicha shakllanmagan holda qolmoqda.



2.3.4.-rasm. [(TROP)]_([MA[XB]]_RAQOBAT) mexanizmi ta'sirida prognoz bozor doira markazining joylashuvi (chapda – SWOT indikatorlar ko'rsatkichlari, o'ngda – prognoz natijasi ko'rsatkichlari).

23 Muallif ishlanmasi, tavsiyaviy yondashuvlar asosida



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida SWOT–SCPM (Strategik SWOT asosidagi koordinata pozitsiyalash modeli) asosida o'tkazilgan empirik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud bozor strukturasi S' (kuchli tomonlar) zonasining ustunligi bilan ajralib turadi, W' (zaif tomonlar) sektori esa barqarorlikka xalaqit beruvchi omil sifatida mavjud. Shu bilan birga, O' (imkoniyatlar) zonalari kengayish salohiyatiga ega, T' (tahdidlar) sektori esa nisbatan barqarorlik holatini saqlab qolmoqda. Bunday holat bozorda kompleks yondashuv orqali strategik transformatsiyani amalga oshirish zarurligini bildiradi.

Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozorida raqobat ustunligi ichki noyob resurslar – yuqori malakali kadrlar, ilg'or texnologiyalar va xizmatlardagi ixtisoslashuv orqali shakllanadi. Bu resurslarni aniqlash va rivojlantirish strategik ustuvorlikni ta'minlaydi. O'yinlar nazariyasiga asoslangan TROP modeli esa SWOT sektorlar o'zaro ta'sirini baholab, optimal strategik qarorlarni prognozlash imkonini beradi.

Hududiy outsorsing markazlarini tashkil etish mintaqaviy xizmat salohiyatini oshirib, iqtisodiy faollik va bandlikni kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat sifati va tezkorligini oshiradi, xalqaro akkreditatsiyalangan kadrlar esa eksport salohiyatini mustahkamlaydi. Huquqiy bazaning takomillashtirilishi va SWOT–SCPM modeli asosida monitoring olib borilishi strategik barqarorlikni ta'minlaydi. Xizmatlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi esa O'zbekiston Respublikasining global outsorsing tarmoqlariga integratsiyasini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020–10–05). "Raqamli O'zbekiston" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF–6079-son Farmon. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022–04–12). Xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ish o'rinlarini ko'paytirish to'g'risida: PF–101-son Farmon. <https://lex.uz/docs/6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023–09–11). "O'zbekiston–2030" Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: PF–158-son Farmon. <https://lex.uz/docs/-6600413>
4. ACCA. (2021). Outsourcing and Shared Services: Drivers of Business Transformation. London: Association of Chartered Certified Accountants.
5. Barney, J. B. (1991). Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
6. Gander, W., Golub, G. H., & Strebel, R. (1994). Least-squares fitting of circles and ellipses. *BIT Numerical Mathematics*, 34(4), 558–578.
7. Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. (2021). *Exploring Strategy: Text and Cases*. Pearson Education.
8. Hill, T., & Westbrook, R. (1997). EFQM.
9. Nash, J. (1950). Equilibrium points in n-person games. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 36(1).
10. UNDP. (2022). *Public Service Capability Framework*. New York: United Nations Development Programme.
11. Von Neumann, J., & Morgenstern, O. (1944). *Theory of Games and Economic Behavior*. Princeton: Princeton University Press.
12. OECD. (2023). *Global Trends in Outsourcing and Public Service Delivery*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
13. OECD. (2023). *Science, Technology and Innovation Outlook 2023*. Paris: OECD Publishing.
14. World Bank. (2023); OECD. (2023); UNCTAD. (2022). *Global Reports on Economic Development and Trade*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>